

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BESHIMOV BAXTIYOR ISKANDAROVICH**

**O‘ZBEKISTONDAGI JINOYATCHILIKNING IJTIMOYIY SABAB VA  
OQIBATLARI (IJTIMOYIY-FALSAFIY RAKURS)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro-2025**

<https://buxdu.uz>

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Beshimov Baxtiyor Iskandarovich**

О‘zbekistondagi jinoyatchilikning ijtimoiy sabab va oqibatlari (ijtimoiy-falsafiy  
rakurs) .....5

**Бешимов Бахтиёр Искандарович**

Социальные причины и последствия преступности в Узбекистане  
(социально-философский ракурс) .....23

**Beshimov Bakhtiyor Iskandarovich**

Social causes and consequences of crime in Uzbekistan (socio-philosophical  
context).....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BESHIMOV BAXTIYOR ISKANDAROVICH**

**O‘ZBEKISTONDAGI JINOYATCHILIKNING IJTIMOIIY SABAB VA  
OQIBATLARI (IJTIMOIIY-FALSAFIY RAKURS)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro-2025**

<https://buxdu.uz>

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fal848 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Namozov Bobir Bahrievich**

Falsafa fanlari doktori(DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xajieva Maksuda Sultonovna**

falsafa fanlari doktori, professor

**To‘ychiev Berdiqu To‘raqulovich**

falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “28” aprel soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (639 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “15” aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil “15” aprel dagi 8 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Zoirov E.X.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi o‘rinbosari,  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Safarova N.O.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafadoktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotida sodir bo'layotgan g'ayriinsoniy va g'ayriijtimoiy hodisalarning oldini olishga jiddiy e'tibor qaratishni talab etmoqda. Ayniqsa, jinoyatchilik hodisasining xilma-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, turli xil yovuz ishlar orqali ayanchli ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganligi aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullarini, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalarini hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish zaruratini namoyon etmoqda. Shuning uchun jinoyatchilikni keltirib chiqarayotgan omillar, holatlar, shart-sharoit va sabablarni ijtimoiy-falsafiy rakursda tadqiq etish, uning turmush tarzi, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy-maishiy muammolar bilan dialektik aloqador xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida jinoyatchilikning tarixi, uning vujudga kelishi sabablari, oqibatlarining o'ziga xos xususiyatlari, jinoyat va jazo, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, yangilanayotgan jamiyatda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, unga qarshi kurash uslub va mexanizmlarini, asl negizlari, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri, mintaqaviy xususiyatlari, o'zgaruvchanlik jihatlari bilan bog'liq masalalardagi yondashuvlarning xilma-xilligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois bu muammoni haqqoniy, ilmiylik tamoyillari asosida jinoyatchilik turlarining kelib chiqishiga huquqiy ongning pastligi, ijtimoiy tarbiyaning besamarligi, ijtimoiy normalarga bepisandlikning mavjudligi, korrupsiya, iqtisodiy jinoyatchilik kabi sabablarni bartaraf etish imkoniyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda "Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati" g'oyasi asosida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta'minlash, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammolarni bartaraf etishga oid chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. "... aholi osoyishtaligini ta'minlash va mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish imkonini beruvchi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan tizimni tezroq joriy qilish choralari ko'rilmoqda. Bugungi kunda har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarga barham berish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga katta e'tibor qaratilyapti"<sup>1</sup>. Chunoschi, jinoyatchilikni kamaytirishda, ularning oldini olishda oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirish, uzluksiz ta'lim va huquqiy tarbiyani uyg'unlashtirish hamda jinoyatchilik darajasini kamaytirishning nazariy-metodologik asosi huquqiy profilaktikani zamonaviylashtirish va ijtimoiy tarbiya samarasini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Тошкент: "O'zbekiston", 2024. –Б.418.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jinoyatchilik, huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi shart-sharoit, sabablar va ularga tegishli oqibatlarining nazariy va amaliy jihatlari bo‘yicha olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. G‘arb olimlari H.Bleichmar, S.Rosenzweig, R.Maurach & H.Zirf tadqiqotlarida jinoyatchilik va u bilan bog‘liq holatlar, uning oldini olish, jazolashda adolat, insonparvarlik tamoyillariga tayanish masalalari tahlil qilingan. E.Dyurkgeym, V.M.Kogan tomonidan jinoyatchilikning umumnazariy masalalari bo‘yicha qilingan monografik tadqiqotlar nazariy metodologik ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlarining jinoyatchilikning serqirraligi, inson shaxsiy hayotini muhofaza qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. M.Grozdinskiy, N.Zagorodnikov, O.Kapinus, A.Popov tadqiqotlarida jamiyatning turli sohalarida sodir bo‘ladigan huquqbuzarlik bilan bog‘liq muammolarning inson hayotiga xavf soladigan g‘ayriqonuniy, g‘ayriinsoniy jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, L.Krasavchikova, B.Tobes, T.Moiseev izlanishlarida jinoyatchilikning umumiy mohiyati va oqibatlari huquqshunoslik nuqtayi nazaridan ochib berilgan. V.Kudryavsev, A.Nomokonov,

---

<sup>2</sup>Bleichmar H. Some subtypes of depression and their implications for psychoanalytic treatment // Int. J.Psycho-Anal. 1996. Vol. 77. –P.939.; Rosenzweig S. The picture-association method and its application in a study of reaction to frustration // J.Pers. 2006. –P.14.; Maurach R. Zirf H. Stalrechtatgemeinerteis. Teilf. and –Heidelberg. 1983/ S/ 456.; Дюркгейм Э. Норма и патология // Социология преступности. –М., 1966. –С. 39.; Коган В. М. Социальные свойства преступности. – М., 1977. – С.37.

M.Penzina jinoyatchilikning umumnazariy masalalari bo'yicha qilingan monografik tadqiqotlari nazariy-metodologik ahamiyat kasb etadi<sup>3</sup>.

O'zbekistonda ham jinoyatchilik masalalari, uning oldini olish va kelib chiqish sabablariga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan. E.Rtveladze, A.Saidov, Ye.Abdullayev, Q.Abdurasulova hammuallifligidagi eng qadimgi davrlarda turli yovuzliklarga qarshi kurashga oid monografik tadqiqotlar jinoyatchilikning chuqur ildizlarini o'rganish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga metodologik ahamiyatga ega. M.Sobirov va Sh.Shomurotovlarning bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy jinoyatlar, ularning oldini olish masalalariga qaratilgan tadqiqotlarida o'ziga xos tarzda iqtisodiy jinoyatlarning g'ayriijtimoiy jihatlari tadqiq etilgan. M.Rajabova tadqiqotlarida esa, jinoyatchilik tarixiga e'tibor qaratilgan bo'lib, unda shariatda jinoyat va jazo masalalari tahlil etilgan. E.Narbutayevning jinoyatchilikka qarshi kurashda qonun va amaliyot masalalariga qaratilgan tadqiqotlarida jinoyatchilikni kamaytirishda qonun ustuvorligi bilan birgalikda unga qashi kurashda ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy qilish orqali oldindan barham berish bilan bog'liq muammolar ochib berilgan. B.Tuychiyev, B.Namozov, B.Turayev, Q.Nazarov, H.Salomova, N.Safarova, S.Choriyev, A.Xuseynova, M.Xajiyeva tadqiqotlarida jamiyat barqarorligi, yoshlar tarbiyasi, aholining farovon va tinch yashashida axloqning, ma'naviyatning va albatta qonunlarning o'rni tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, jinoyatchilikning muayyan qirralari yoki sohalar bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Jinoyatchilikning xususiyatlari, uni keltirib chiqaruvchi omillari, sabablari va oqibatlarini yaxlit o'rganilmagan. Xususan, ushbu dissertatsiyada O'zbekistondagi jinoyatchilikning sabab va oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy rakursda tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan.

---

<sup>3</sup> Гроздинский М.М. Преступления против личности. -М., 1927.-С. 7; Загородников Н.И. Преступления против жизни, здоровья, свободы и достоинства личности. -М., 1956.- С. 9.; Капинус О.С. Эвтаназия в свете права на жизнь: монография. - М.: "Камерон", 2006. - С.201; Попов А.Н. Преступления против личности при смягчающих обстоятельствах. СПб.: Юрид. центр Пресс, 2001. С.56. Красавчикова Л.О. Право на охрану здоровья (гражданско-правовой аспект) // Актуальные проблемы гражданского права. Свердловск, 1986. -С. 62-65.; Тобес Б. Право на здоровье: теория и практика / пер. с англ. -М.: Устойчивый мир, 2001. -С. 220-234. Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. -М., 1998 -С.16.; Номоконов А. Преступное поведение: детерминация и ответственность. - Владивосток, 1989. -с.187.; Пензина М.С. Вестник молодых ученых и специалистов Самарского университета. 2016. №2(90).-С. 120.

<sup>4</sup>Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Авеста "Законпротив дэвов" (Видевдат). СПб.: Изд-во Политех. ун-та, 2008. - С. 105.; Собиров М.С., Шомуротов Ш. Бозор муносабатлари шароитидаги иктисодий жиноятлар, уларнинг кичкача криминологик тавсифи ва олдини олиш йўллари. -Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1999. -Б.21.; Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. Toshkent "Adolat" 2007. - В.18.; Ражабова М. Шариатда жиноят ва жазо. -Т.: Адолат, 1996. Б.83.; Нарбутаев Э.Х. Борьба с преступностью: Закон и практика. Ташкент, Мехнат, 1991. -С. 195.; Bakhriyevich N. B. Knowledge, practice and scientist //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. -2020. - Т. 10. -№. 6. - С. 1745-1756. Тураев, Б.О. Развивающаяся пространственно-временная картина мира. Германия: LAP Lambert Academic Publishing - 2015. -210 с.; NazarovK. etal. National idea and development strategy of Uzbekistan //Tashkent: National Society of Philosophers of Uzbekistan. -2018.Salomova H. Miqdor-me'yorning tarkibi sifatida //центр научных публикаций (buxdu. uz). -2022. -Т. 20. -№. 20. Nigora, Safarova. "Terrorizm: tarixiy falsafiy takhlil".Toshkent: Noshir(2009). Anvarovich C. S., Zhurakobilovna R. D. Factors threating personal security in uzbekistan //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. -2022. -Т. 2. -№. 4. - С. 62-68.; Хусейнова А. А. Янги Ўзбекистон шароитида инсон ҳуқуқларини химоя қилишнинг асосий омиллари // Журнал правовых исследований. -2022. -Т. 7. -№. 5., Гуйчиев Б. Т. Роль информатизации общества в развитии политической культуры // МустақилЎзбекистон. -1997.;

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistondagi jinoyatchilikni keltirib chiqarayotgan sabablarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini aniqlash va oqibatlarini bartaraf etishga oid takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jinoyatchilikning mazmuni, shakllari, belgilarini ijtimoiy-huquqiy tavsiflash; jinoyatchilikka doir olib borilgan tadqiqotlarni qiyosiy tahlil etish va ijtimoiy falsafiy xususiyatlarini ochib berish;

jinoyatchilikka aloqador hodisalar, ularning sababiy bog'lanishlari va o'ziga xos jihatlarini asoslab berish;

O'zbekistonda jinoyatchilik darajasi, uni keltirib chiqarayotgan omillar, sabablar va uning ijtimoiy oqibatlarini tadqiq etish;

huquqiy profilaktikani yuksaltirishda huquqiy profilaktikaning ijtimoiy muvozanatni ta'minlash g'oyalari, milliy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish tamoyillarining o'rnini ochib berish;

jinoyatchilikni bartaraf etishda ijtimoiy tarbiyaga kompleks yondashuvni tashkil etish, uni amalga oshirishning mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlarning huquqiy immunitetini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot obekti** sifatida O'zbekistondagi jinoyatchilikning vujudga kelishi, ijtimoiy jarayonlarga ta'siri va oqibatlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekistondagi jinoyatchilikning sabablari va oqibatlarini, jinoyatchilikka olib keluvchi omillar va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jinoyatchilikning to'g'ridan-to'g'ri, qasddan va ehtiyotsizlik natijasida sodir etiladigan turlari fuqarolarning turmush tarzi, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy-maishiy muammolarning o'tkirlashuvi ta'sirida vujudga kelishi sabablari hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga teskari ta'sir qilishi, iqtisodiyotdagi "xufiyona" manfaatlar qo'shib ketishiga yo'l ochishi, shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yish, ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otishi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini zaiflashtirishi kabi oqibatlarining dialektik aloqadorligi asoslangan;

O'zbekiston sharoitida namoyon bo'layotgan jinoyatchilikning kelib chiqishiga nosog'lom turmush tarzi, huquqiy ongning pastligi, bo'sh vaqtni unumsiz o'tkazish, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, ijtimoiy tarbiyaning besamarligi, axloqiy e'tiqodning noturg'unligi, ijtimoiy normalarga bepisandlikning mavjudligi kabi sabablar hamda ularning umuminsoniy axloq me'yorlari

(odamiylik, o‘zaro yordam, mehr-shafqat, adolat, bag‘rikenglik) asosida yuksak madaniyatli shaxsni qaror toptirish va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash (ajdodlar merosiga hurmat hissi, inson huquq va erkinliklarini kamsitmaslik) kabi bartaraf etish imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

korrupsiya, iqtisodiy jinoyatchilik, xizmat vazifasini suiiste‘mol qilish, ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qilish, narkotik moddalarni tarqatish kabi ijtimoiy xavfli huquqbuzarliklar bilan jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitning (ishsizlik, kambag‘allik, kasbiy ta‘limning sustligi, noqonuniy faoliyat), ma‘naviy-axloqiy holatning (axloqiy normalarning buzilishi, oilaviy tarbiyaning zaiflashishi, ruhiy beqarorlik) hamda mamlakat xalqaro imiji (sarmoyalarning kamayishi, sanksiyalar, turistik xavf, taraqqiyot indekslaridagi o‘rni) bilan deterministik aloqadorligi ochib berilgan;

jinoyatchilik darajasini kamaytirishda huquqiy profilaktikaning sun‘iy intellekt, monitoring tizimlari va ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish, interaktiv platformalar va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish kabi zamonaviylashtirish mexanizmlari hamda ijtimoiy tarbiya samarasini oshirishning oilaviy tarbiyani kuchaytirish, huquqiy madaniyat darslarini kuchaytirish, sport va madaniy tadbirlarni rivojlantirish, jazolash o‘rniga ta‘lim va rehabilitatsiya dasturlarini qo‘llash kabi yo‘nalishlari asoslab berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining nazoratsizlik, ta‘lim va tarbiya sustligi, tarbiyaviy ishlarning nooqilona tashkil etilganligi kabi ijtimoiy-falsafiy omillari aniqlanib, ularning oldini olish hamda unga qarshi bevosita kurash olib borishda o‘smirning kayfiyati va ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatish, ma‘naviy va axloqiy mo‘ljallarni barqarorlashtirish, oila yoki jamoada qulay shart-sharoitlar yaratish kabi mexanizmlarini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan;

korrupsiyaga qarshi jamoatchilik monitoringida davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining (assotsiatsiyalar, fondlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, harakatlar, siyosiy partiyalar, biznes hamjamiyati) yetarli resurslarga teng ega bo‘lishi, miqdor va sifat jihatidan ko‘rsatkichlarda davlat organlarining rasmiy statistik ma‘lumotlarga tayanishi, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha o‘lchovlarini xorij tajribasi asosida amalga oshirishi, qayta ishlash va sharhlashi xarakterlangan;

huquqiy targ‘ibotlar orqali antikorrupsion tafakkurni shakllantirishda huquqiy baholash, murosasiz munosabat, huquqiy bilimlarni hayotga tatbiq etish, konstitutsiyaviy savodxonlik omillari siyosiy institutlarning yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasi va ularning ehtiyojlari, manfaat va maqsadlarini uyg‘unlashtirish, milliylikni rivojlantirish, milliy g‘oya va qadriyatlarni yuksaltirish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalda ro‘yobga chiqarish tamoyillari bilan hamohangligi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma‘lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro

konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jinoyatchilikning sabab va ijtimoiy oqibatlarini haqidagi ijtimoiy-falsafiy tasavvurlarni, bilimlarni shaxs va jamiyatga doir nazariy mulohazalar bilan boyitishda, inson huquqiy madaniyati ma'naviyati transformatsiyasiga doir ilmiy izlanishlarning muayyan jihatlarini tadqiq etishda, jinoyatchilikning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini monitoring qilish, huquqiy tarbiyaning ilmiy asoslangan uslubiyotini ishlab chiqishda, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borishda, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirishga qaratilgan faoliyatda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan shaxs huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyatini yuksaltirish va xulq-atvorini tarbiyalashga doir zamonaviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot ishlarida, ma'rifiy va madaniy tashkilotlarning faoliyatida, fuqarolik jamiyati institutlari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlarining kompleks chora-tadbirlarni belgilashda, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yaratish, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish, sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar va so'rovlar o'tkazishda, targ'ibot-tashviqot jarayonida, ma'rifat soatlari, "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistondagi jinoyatchilikni keltirib chiqarayotgan sabablar va ularning oqibatlarini bartaraf etishga oid olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

jinoyatchilikning to'g'ridan-to'g'ri, qasddan va ehtiyotsizlik natijasida sodir etiladigan turlari fuqarolar turmush tarzi, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy-maishiy muammolarning o'tkirlashuvi ta'sirida vujudga kelishi sabablari hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga teskari ta'sir qilishi, iqtisodiyotdagi "xufiyona" manfaatlar qo'shilib ketishiga yo'l ochishi, shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yish, ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otishi, jamiyat ma'naviy-axloqiy asoslarini zaiflashtirishiga oid ilmiy yangiliklar hamda taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqam "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning kontseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)" (2018-2020 yy.) amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda hamda nashr etilgan ishlarda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 19-fevral 04/11-2756-son ma'lumotnoma). Natijada, jamiyat ijtimoiy hayotida ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlar, ma'naviy-axloqiy tubanlik yoki turli shakllardagi

huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etishda ogohlik maqomini insonparvarlik mezonlari va prinsiplari asosida amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston sharoitida namoyon bo‘layotgan jinoyatchilikning kelib chiqishiga nosog‘lom turmish tarzi, huquqiy ongning pastligi, bo‘sh vaqtning unumsiz o‘tkazish, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, ijtimoiy tarbiyaning besamarligi, axloqiy e‘tiqodning noturg‘unligi, ijtimoiy normalarga bepisandlikning mavjudligi kabi sabablar hamda ularni umuminsoniy axloq me‘yorlari (odamiylik, o‘zaro yordam, mehr-shafqat, adolat, bag‘rikenglik) asosida yuksak madaniyatli shaxsni qaror toptirish va vataparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash (ajdodlar merosiga hurmat hissi, inson huquq va erkinliklarini kamsitmaslik) kabi bartaraf etish imkoniyatlariga doir taklif, tavsiyalar va ilmiy-nazariy xulosalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining faoliyatida, jumladan, 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “Milliy g‘oya targ‘ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog‘lom mafkura, yangi ma‘naviy makon, ma‘rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan” 20-bandi “Mahallalarda ma‘naviy-ma‘rifiy sohani yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarimiz, halollik birdamlik kabi tuyg‘ularni kuchaytirish, aholida boqimandalik va jinoyatchilikka moyillikning oldini olish” maqsadida “Obod mahalla – yangi ma‘naviy makon” mavzusidagi loyihani amalga oshirishda hamda targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 23-dekabrda 10/228-son ma‘lumotnomasi). Natijada, O‘zbekistondagi jinoyatchilikni keltirib chiqarayotgan sabab va oqibatlarini tahlil etishga, sabrlilik, shukronalik fazilatlarini barkamol inson tarbiyasiga singdirishda va mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga oid faoliyatni samarali tashkil qilishga xizmat qilgan;

korrupsiya, iqtisodiy jinoyatchilik, xizmat vazifasini suiiste‘mol qilish, ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qilish, narkotik moddalar tarqatish kabi ijtimoiy xavfli huquqbuzarliklar bilan jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitning (ishsizlik, kambag‘allik, kasbiy ta‘limning sustligi, noqonuniy faoliyat), ma‘naviy-axloqiy holatning (axloqiy normalarning buzilishi, oilaviy tarbiyaning zaiflashishi, ruhiy beqarorlik) hamda mamlakat xalqaro imiji (sarmoyalarning kamayishi, sanksiyalar, turistik xavf, taraqqiyot indekslaridagi o‘rni) bilan deterministik aloqadorligiga oid ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalaridan Buxoro viloyati televideniya kompaniyasida namoyish etilgan “Korrupsiya-jamiyat kushandasi”, “Jinoyat va jazo”, “Huquq bilimdoni” kabi profilaktik tadbirlarga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlarning senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 13-avgustdagi 01-09-79-son ma‘lumotnomasi). Natijada, xalqimizni, ayniqsa, o‘ziga kelayotgan yosh avlodni qonunga itoat, davlat tizimiga hurmat ruhida tarbiyalashga, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish maqsadlariga yo‘naltirilgan bilimlarini oshirishga xizmat qilgan;

jinoyatchilik darajasini kamaytirishda huquqiy profilaktikaning sun‘iy intellekt, monitoring tizimlari va ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish, interaktiv platformalar va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish kabi

zamonaviylashtirish mexanizmlari hamda ijtimoiy tarbiya samarasini oshirishning oilaviy tarbiyani kuchaytirish, huquqiy madaniyat darslarini kuchaytirish, sport va madaniy tadbirlarni rivojlantirish, jazolash o'rniga ta'lim va rehabilitatsiya dasturlarini qo'llash kabi yo'nalishlarini takomillashtirishga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2021-yil 31-avgustdagi 318-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalari faoliyatini tashkil etish bo'yicha vaqtinchalik nizomi"ning 7 va 8-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining 2024-yil 13-apreldagi 26/1074-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar orasida ijtimoiy-ma'naviy hayot qoidalarini buzish bilan bog'liq holatlarning oldini olish, ularning xatti-harakatlarini jamiyatda mavjud shart-sharoitlarga moslashtirishga oid fidoiylilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi axloqiy me'yorlarni shakllantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta jumladan, 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jinoyatchilik definitsiyasi va tavsifining nazariy metodologik asoslari**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotchi jinoyatchilikning mazmuni, shakllari, belgilari va turlari, jinoyatchilikka oid ilmiy manbalar tahlilini amalga oshirgan.

Dissertatsiyadajamiyat rivoji va barqarorligi uchun xizmat qiluvchi madaniy, ma'naviy, hodisalar bilan birga unga zid bo'lgan jinoyatchilik hodisasi ham turli shakllarda namoyon bo'lishi ochib berilgan. Shu jihatdan, jinoyatchilik bir emas,

ko'plab jinoyatlar, g'ayriinsoniy va ijtimoiy xilma-xil xavfli qilmishlar ularning muayyan yig'indisi ekanligi uqtiriladi.

Tadqiqotchi jinoyatchilik tushunchasining mazmuniga e'tibor qarab, u nafaqat obyektiv, balki ijtimoiy hodisa, ya'ni kishilik jamiyati va uning qonunlari bilan bog'liq ekanligini hamda jinoyatchilik tushunchasiga ta'rif bergan mualliflar unga dastlab ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflashga alohida e'tibor qaratganlarini ta'kidlagan. Ilmiy manbalar tahlili asosida ko'plab xorijiy soha olimlari, mahalliy tadqiqotlarda berilgan ta'riflarni keltirgan. Shuningdek, ishda tadqiqotchining jinoyatchilikka ta'rifi quyidagicha ishlab chiqilgan: *Jinoyatchilik muayyan hududda sodir bo'ladigan hamda tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgarib boradigan ijtimoiy xavfli huquqbuzarlik shakllaridan tarkib topuvchi ijtimoiy hodisadir.*

Dissertatsiyada jinoyatchilikning muqaddas diniy manbalarda keltirilgan sabab va oqibatlari xususidagi ma'lumotlarga tayanib tahlil qilingan. Islom dinining muqaddas kitobi Qur'onning "Niso" surasi 29-oyatida "Ey imon keltirganlar bir-biringizning molingizni nohaq yemang. Savdo-sotiq qilganda bir-biringizni rozi qiling. O'zingizni halok qilmang. Alloh sizlarga rahm shafqatli axir. 30-oyatida Adovat va zo'ravonlik bilan shunday qilganlarni do'zax o'tida kuydiraman. Bu ish Allohga juda oson. 31-oyatida man etilgan og'ir gunohlardan saqlansangiz yengillarini kechiraman. So'ngra rohatbaxsh manzilga kiritaman"<sup>5</sup> kabi dalillar bilan o'z mulohazalarini isbotlagan. Darhaqiqat, muqaddas kitoblarda ham insonning xatti-harakatlarida sodir bo'ladigan jinoyatlar, yomon odatlar, xulqlardagi nuqsonlar qoralanadi. Uning jazosi oxiratda qattiq bo'lishiga ishora qilinadi. Demak, inson o'zini-o'zi axloqan, ma'nan yuksaltirishga, ongli va sog'lom hayot kechirishga undamasa, o'zi uchun ham jamiyat uchun ham katta zararlar yetkazishi mumkin.

Ilohiyotda jinoyat (jinoyatchilik) tushunchasi o'rniga kengroq va qamrovliroq bo'lgan "gunoh" atamasi qo'llaniladi. Ammo "gunoh" tushunchasi odamlar va jamiyat uchun o'ta xavfli bo'lgan inson xulq-atvori sifatidagi jinoyatni ham o'z ichiga oladi. Masalan, odam o'ldirish, birovning molini o'g'irlash, birovga zo'rlik ishlatish, odamning sha'ni va qadr-qimmatini yerga urish va hokazolar og'ir gunoh hisoblanadi. Asosiy dinlarda "odam o'ldirma", "o'g'rilik qilma" kabi aqidalar amal qiladi. Ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan muammoga oid ilohiy qarashlarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, inson (umuman, butun insoniyat) gunoh qilishga moyildir. Bunga Odam Ato va Momo Havoning o'g'illari Hobil va Qobil haqidagi mashhur rivoyat misol qilib keltiriladi va insonning gunoh qilishi o'shandan boshlangan, deb ta'kidlanadi. Bu ta'limot nuqtai nazariga ko'ra, insonning jinoiy (gunohkor) xulq-atvori uning "tabiiy", uzviy xossalaridan biridir. Binobarin, toki insoniyat bu yorug' dunyoda mavjud ekan, uning bu xossasi yo'qolmaydi.

Dissertant jinoyatchilikning murakkab ijtimoiy xarakterga ega ekanligini, uning mazmuni, shakllari va belgilari, turlari hozirgi sharoitda xilma-xillik kasb etayotgani va u to'g'ridan-to'g'ri, qasddan va ehtiyotsizlik natijasida sodir

---

<sup>5</sup> Куръони карим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси. / Таржимон А.Иноятов, Ғ.Зикриллаев. - Тошкент: "Нилol nashr", 2022. -Б.83.

etiladigan jinoyatchilik turlari ayrim fuqarolar turmush tarzi, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy-maishiy muammolarning o'tkirlashuvi ta'sirida vujudga kelayotganligini amaliyotda kuzatilayotgan holatlar bilan asoslagan.

Dissertatsiyada jinoyatchilik – shubhasiz g'ayriijtimoiy salbiy hodisa, ba'zan uni ijtimoiy ijobiy hodisa sifatida baholashga urinishlar ham bo'lganligi qayd etilgan: E.Dyurkgeym jinoyatchilik taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch u jamiyatda muhim foydali funksiyani bajaradi<sup>6</sup>, -degan fikrlari tarixiy va falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Amerikalik olim Tannenbaumning “Jinoyatchilik – jamiyat kabi abadiydir. Jinoyatchilikka barham berish mumkin emas. Jinoyatchilik – kasallik, o'lim kabi abadiy hodisa”<sup>7</sup> ekanligi bilan tavsiflagan qarashlari mazmuni ilmiy manbalar tahlili orqali ochib berilgan.

Tadqiqotchi, jinoyatchilik: a) to'g'ridan-to'g'ri jinoyatlar; b) bevosita qasddan sodir etilgan jinoyatlar; v) ehtiyotsizlik natijasida sodir etiladigan jinoyatlarga bo'linishini ta'kidlagan. Shu bilan birga tadqiqotda jinoyatchilik bir qancha o'ziga xos belgilarga egadir. Bular nisbatan ommaviylik, tarixiy o'zgaruvchanlik, ob'ektivlik, ijtimoiylik, jinoyat-huquqiylik, u yoki bu davlatda muayyan davrda sodir etilgan barcha jinoyatlarning umumiy miqdori yoki jinoyatchilik – muayyan makon, mintaqada ma'lum davr ichida sodir etilgan barcha jinoyatlar majmui ko'rinishidagi tarixan o'zgaruvchan, salbiy, obyektiv va ijtimoiy hodisa ekanligi fakt va argumentlar, statistik ma'lumotlar tahlili asosida ochib berilgan.

Dissertatsiyada ta'kidlanganidek, ijtimoiy munosabat mazmuniga ko'ra ham, tarkibi jihatidan ham murakkab hodisadir. Ijtimoiy munosabatning asosiy elementlari jamiyat, davlat va ularning qonun-qoidalari, tuzilmalari, vakillari, odamlarning har xil birlashmalari va jamoalari, alohida shaxslar, moddiy borliq predmetlari hamda har xil shakllarda, shu jumladan huquqiy shaklda namoyon bo'luvchi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi bog'lanish. Har qanday shaxs muayyan jinoyatni sodir etar ekan, ijtimoiy munosabatning u yoki bu elementlariga tajovuz qiladi, ularning o'zaro bog'lanishini buzadi va shu tariqa munosabat ishtirokchilarining manfaatlariga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazadi. Shu jihatdan jinoyatchilik ijtimoiy munosabatlar doirasida o'z sabablariga ega bo'lib, shu sababli asosan ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Umuman olganda, bu hayotning iqtisodiy sharoitlarini, inson psixologiyasini, uning ehtiyojlari, manfaatlari, xulqatvor motivlari va maqsadlarini, kichik va katta ijtimoiy guruhdagi odamlarning o'zaro munosabatlarini (oila, ishlab chiqarish munosabatlari, yaqin muhitini), qarashlari, e'tiqodlari, qadriyatlarini va mo'ljallarini ham qamrab oladi.

Dissertatsiyada soha olimlarining jinoyatchilik sabablari xususidagi qarashlari tahlili asosida oiladagi va turmushdagi salbiy ta'sirlar; nosog'lom turmush tarzi; yomon xulqli shaxslar bilan aloqada bo'lish; ta'limga qamrab olinmagan voyaga yetmaydiganlarning uzoq vaqt mobaynida muayyan foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmaganligi; o'smirning noto'g'ri qabul qilishga sabab bo'ladigan holatlar; katta yoshdagi jinoyatchilar tomonidan huquqbuzarliklarga va turli g'ayriijtimoiy

<sup>6</sup> Дюркгейм Э. Норма и патология // Социология преступности. – М., 1966. – С. 39.

<sup>7</sup> Преступление как социально патологическое явление. – СПб., 1900. –С.7.

xatti-harakatlarga jalb qilinishi; zo'rlik ishlatishlar yozilgan turli kitob va videofilmlarning ta'siri; hayotdagi omadsizliklar va axloqiy e'tiqodlarning turg'un emasligi; ruhiy holatdagi ayrim sifatlar; ayrim harakatlarga nisbatan romantik qarashlar va shunday harakatlarni sodir etishga moyillikning kuchayishidir.

Jinoyatchilikning boshqa sabablariga shaxsning kayfiyati va ruhiy holatiga ta'sir qiladigan va muayyan iz qoldiradigan hayotdagi omadsizlik; ahloqiy va etik e'tiqodlarining turg'un emasligi, jinoiy guruhlar bilan bevosita aloqada bo'lish yoki muayyan sharoitlarda bunday guruh a'zolarining shaxsga ta'siri, ruhiy holatdagi ayrim sifatlar, ayrim harakatlarga nisbatan romantik qarashlar va shunday harakatlarning sodir etishga moyillikning kuchayishi kabi sabablar tavsiflangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekiston sharoitida jinoyatchilikning namoyon bo‘lish xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, bunda O‘zbekistondagi jinoyatchilik darajasi, uni keltirib chiqarayotgan omillar, jinoyatchilikning ijtimoiy sabablari va oqibatlari tahlil etilgan.

Tadqiqotda jinoyatchilik tarixiy shart-sharoit, makon va zamonda o‘zgarib, o‘zini turli ko‘rinishlarda namoyon etishi asoslab berilgan. Uning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy omillar bilan bog‘liqligi, inson-jamiyat-davlat tizimida amalga oshirilayotgan ishlar insonparvar maqsadlarga yo‘naltirilganligi bilan o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan jamiyatda mavjud jinoyatchilik hodisasini oldini olish avvalo insonga e'tibor, uning munosib turmush tarzini yaratishga qaratilgan ezgu ishlarga ham bog‘liqligi asoslangan.

Dissertant ta'kidlashicha, dunyo tajribalari tahliliga tayanib, qashshoqlik va ishsizlik darajasining yuqoriligi mamlakatlarda jinoyatchilik darajasi oshishiga olib kelgan. Dunyo mamlakatlaridagi jinoyatchilik darajasiga oid ma'lumotlarni keltiradi: 2023 yildagi “World Population Review” ro‘yxatidagi 100 000 kishiga nisbatan jinoyatchilik darajasi eng yuqori o‘ntalikka ega bo‘lgan davlatlar quyidagilar:

- 1.Venesuela (83,76);
- 2.Papua-Yangi Gvineya (80,79);
- 3.Janubiy Afrika (76,86);
- 4.Afg‘oniston (76,31);
- 5.Gonduras (74,54);
- 6.Trinidad va Tobago (71,63);
- 7.Gayana (68,74);
- 8.Salvador (67,79);
- 9.Braziliya (67,49);
- 10.Yamayka (67,42)<sup>8</sup>.

Markaziy Osiyo davlatlari ichida Qirg‘iziston eng yuqori darajada jinoyatchilik sodir etiladigan davlatlar qatoridan joy olgan. Mamlakatda har 100 ming aholidan 56,87 kishi jinoyat sodir etgan. Bu esa Qirg‘izistonni 31 o‘ringa joylashtirgan. Shuningdek, Qozog‘iston 40-o‘rinda (53,77) qayd etilgan. O‘zbekiston esa jinoyatchilik nisbatan kamroq sodir etiladigan davlatlar qatorida

---

<sup>8</sup>Дехконов Ш. Ахборот алмашинувидаги кулайлик. / Ёшларни ахборот-психологик хуружлардан химоя қилиш технологиялари: назария ва амалиёт. Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Т.: ЎзМУ.2021. –Б. 52.

bo'lib, O'zbekiston fuqarolari ichida har 100 ming aholidan 33,42 kishi jinoyat sodir etib, 99-o'rinda qayd etilgan.

Dunyodagi eng kam jinoyatlar Shveysariya, Daniya, Norvegiya, Yaponiya va Yangi Zelandiyada kuzatilgan. Bu mamlakatlarning har birida huquq-tartibot organlarining samaradorligi yuqori baholangan. Qurol bilan bog'liq dunyodagi eng qat'iy qonunlar ham Daniya, Norvegiya va Yaponiyada amal qiladi. Demak, jinoyatchilik kam qayd etilgan yoki darajasi pastroq mamlakatlar tajribasini o'rganish, jinoyatchilikka qarshi kurash usullari, takomillashtirish muhimdir.

Dissertatsiyada O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi turli iqtisodiy munosabatlar muhitini yaratayotgani shu jarayonlarda jinoyatchilikning ham rivojlanib serqirra xususiyatlar kasb etayotgani ochib berilgan.

Tadqiqotchi jamiyatda eng ko'p zarar yetkazuvchi "korrupsiya" jinoyatchiligining xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Korrupsiya-bu yagona tarkibga ega bo'lgan alohida jinoyatemas. Jinoyat qonunchiligi korrupsiya uchun emas, balki korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Bu esa, korrupsiyaning bir qancha jinoyatlar yig'indisi ekanligini anglatishini uqtiradi. I. Karpesning fikriga ko'ra, "jahondagi qonunlarning birortasida "korrupsiya" tushunchasi jinoyat tarkibi sifatida tilga olinmaydi, u jinoyat tarkibini tashkil etmaydi, balki jinoyatchilik kabi, boshqa ko'pgina ijtimoiy hodisalar kabi ijtimoiy hodisadir"<sup>9</sup>.

Demak, har bir jinoyatning obyektiv tomoni asosan uning ijtimoiy xavfliligini namoyon qilar ekan, pora olish jinoyati jamiyat va davlatning qonuniylik va adolat tamoyillarining yemirilishiga olib keladi. Jamiyat a'zolarining qonunchilik, davlatga, hukumatga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolatga putur yetkazadi. Kishilarda qonunga itoat, davlat tizimiga hurmat tuyg'ulariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'sib kelayotgan yosh avlodda kelajakka umid, erangi kunga ishonchni uyg'otishda mone'lik qiladi-deb tadqiqotchi xulosa qiladi.

Dissertatsiyada mamlakatimizda sodir etilgan korrupsiya jinoyatlariga munosabatimizning keskin tus olmagan bugungi kunda esa, ushbu jinoyatchilikka oid qonunlarning kuchaytirilganligi, qarshi kurashning takomillashtirilishi o'z samarasini berayotgani ta'kidlangan. O'zbekistondagi jinoyatchilik xususiyatlarida yoshlar, o'smirlar va boshqa toifalar orasidagi farq turlicha bo'lishi bilan birga ularning bir-muhitda yoki bir xil omillar ta'sirida bo'lganligi ham kuzatiladi. Shu ma'noda jinoyatchilik shu yo'nalishda: o'smirning kayfiyati va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar; ma'naviy va axloqiy mo'ljallarning beqarorligi; shaxslar jinoiy guruhi bilan yaqin aloqada bo'lish yoki muayyan sharoitda ular o'smirlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi; ruhiyatining ayrim xususiyatlari; oila yoki jamoadagi noqulay shart-sharoitlar, e'tibor va g'amxo'rlikning sustligi, o'sib kelayotgan avlodga befarqlik, bee'tiborlik, tarbiyasiga loqaydlik ham o'ziga xos ta'sir etadi. Shu bilan birga voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan

---

<sup>9</sup>Карпец И.И. Организованная преступность как социальная и юридическая проблема, ее тенденции и причины. Организованная преступность-2. / Под ред. А.И.Долговой, С.В.Дьякива. – М., 1993. – С.13-15

turli-xil huquqbuzarliklarga birinchi navbatda, o'sha shaxsda huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning yetishmasligi ham asosiy sabablardandir. Huquqiy ongi, tarbiyasi va huquqiy madaniyati yetuk bo'lmagan voyaga yetmagan shaxs jamiyatda amalga oshirayotgan ayrim salbiy harakatlarni huquqbuzarlik ekanligini tushunmaydi. Voyaga yetmagan o'smir mayda o'g'irlik huquqbuzarlik ekanligini, buning oqibatida javobgarlik masalasi borligini huquqiy ongi huquqiy madaniyati yetishmasligi va huquqiy tarbiyaga ega emasligi uchun bilmaydi. Natijada anashunday mayda huquqbuzarliklar o'rnini katta jinoyatlar egallaydi.

Dissertant O'zbekiston sharoitida jinoyatchilik turlarining kelib chiqishiga huquqiy ongning pastligi, ijtimoiy tarbiyaning besamarligi, ijtimoiy normalarga bepisandlikning mavjudligi sabab bo'layatganini, korrupsiya, iqtisodiy jinoyatchilik, xizmat vazifasini suiiste'mol qilish, ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilish, narkotik moddalar tarqatish kabi ijtimoiy xavfli huquqbuzarlik bilan jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy muhit, mamlakat xalqaro imiji o'rtasidagi dialektik aloqadorligini ochib bergan.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga, intellektual boy, axloqiy, ruhiy-ma'naviy salohiyatli shaxsni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Uning kelajagi, tarbiyasi va ma'naviyati uchun butun jamiyat javobgarligi uqtirilmoqda. Bu yo'nalishda oila, mahalla, jamoatchilik, ta'lim va tarbiya muassalari birdek mas'ul hisoblanadi. Jamiyatimizdagi tub o'zgarishlar, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy sohalaridagi chuqur islohotlar, tizimdagi o'zgarishlar va huquqiy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar, yangiliklar yoshlarga o'z vaqtida yetib borishi kerak. Ya'ni, yoshlar avvalo jinoyat sodir etgandan keyin emas, balki jinoyatchilikning ayanchli va og'ir oqibatlarini oldindan anglashi, shaxsning jinoyat sodir etishi nima ekanligi, uning oldini olish bo'yicha ko'plab ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Ko'p hollarda o'smirlar, umuman kattalar ham jinoiy javobgarlik, jazo choralari, jinoyatchilik to'g'risidagi malumotlarni faqat jinoyat sodir etganlaridan keyingina huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlaridan eshitib, tushunib oladi. Shuning uchun huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyatni uning yoshligidan boshlab o'stirib borish yaxshi natija berishi mumkinligi uqtiriladi. Jinoyatchilik qanaqa shaklda bo'lishidan qat'iy nazar u shaxsning o'zi uchun ham jamiyat uchun ayanchli oqibatlarga olib kelishi tayin.

Dissertatsiyada ifodalanishicha, jinoyatshilikning ijtimoiy oqibatlari ijtimoiy-huquqiy, tarixan o'zgaruvchan hodisa bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat tomonidan jinoyatchilikning sodir bo'lishi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishni tashkil etish bilan bog'liq holda jinoyatchilik sababli yetkazilgan bartaraf etilmaydigan jamlangan real zararni ifodalaydi. Jinoyatchilik oqibati hodisasi jinoyat natijasida yetkazilgan jami ijtimoiy va noijtimoiy, bevosita va bilvosita zarar sifatida o'rganiladi. Ularning miqdoriy va sifat xususiyatlari aniqlanadi. Jinoyatchilik tushunchasi uning oqibatlari va qurbonlarini qamrab olishi aniqlanadi. Dunyoda globallashuv sharoitida professional tus olib borayotgan hozirgi jinoyatchilikning jipslashishi, jinoiy guruhlar tomonidan iste'mol bozorlarining butkul egallab olinishi, qonunsiz ravishda qo'lga kiritilgan kapitallarning xo'jalik va tijorat tuzilmalari orqali qonuniylashtirib olinishi yaqqol ko'zga tashlanayotganligi ham

juda xavflidir. Bu yo‘nalishda xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotlari bilan birgalikda harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

